

Agroiqtisodiyot

илмий-амалий агроиқтисодий журнал

МУНДАРИЖА

3. **А.МИРЗАЕВ.** Бозор шароитида суғориладиган ерларда ер ва сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имкониятлари
7. **A.ABDULLOYEV.** Mintaqa investitsion jozibadorligini baholash usullari
11. **Ф.ЮЛДАШЕВ.** Вопросы активизации инвестиционной деятельности банков путём создания финансово-промышленных групп
14. **Х.ҚАЛИМБЕТОВ, К.ХАЛМУРАТОВ, К.ПОЛАТОВ.** Қишлоқ хўжалигида иқтисослашув жараёни юз беришидаги муҳим шарт-шароитлар
17. **N.JURAYEVA.** Xorijiy tajribalar asosida, qishloq xo'jaligida yangi xizmat turlarini tashkil etish imkoniyatlari
20. **М.ЭРХОНОВА.** Қишлоқ хўжалиги ўсимликларини биологик усулда ҳимоялаш соҳасини ривожлантиришнинг тўғазарий асослари
23. **М.ЯХЯЕВ.** Ҳайлов чорвачилигини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари
27. **З.ИШНИЯЗОВ.** Пахтачилик соҳаси фаолиятининг иқтисодий самарадорлигини ошириш имкониятлари
29. **I.ERGASHEV, S.YULDASHEVA.** Paxtachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning omillari
32. **А.АБДУМЎМИНОВ.** Озиқ-овқат саноатининг миллий иқтисодиётда тугган ўрни
35. **Г.АДИЛОВА.** “Ақли қишлоқ хўжалиги” концепцияларининг қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришдаги ўрни ва аҳамияти
39. **Д.ДЖАЛАЛОВА.** Қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларни жорий этишнинг давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмларини такомиллаштириш йўллари
42. **З.ЮСУПОВ.** Қишлоқ хўжалигини техник модернизациялаш тизимини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш йўллари
45. **С.ЖАМОЛДИНОВ.** Давлат солиқ инспекцияларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этишнинг назарий асослари
49. **M.TURDIYEVA.** Sanoat korxonalarida innovatsiyalarning tugan o'rni va roli (Buxoro hududi misolida)
51. **З.ҚАЙИМОВА, А.АБДУЛЛАЕВ.** Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида халқаро стандартлар асосида озиқ-овқат маҳсулотларини рақобатбардошлигини ошириш йўллари
43. **З.РЕЙМБАЕВА.** Институционал механизмларининг моҳияти ва институтлар трансформациясида уларнинг ўрни
56. **З.ШАНИЯЗОВА.** Қишлоқ хўжалиги секторини ривожлантиришнинг назарий ва концепция асослари
59. **Z.GAIBNAZAROVA.** Avtomobilsozlik korxonalarida ilmiy-tadqiqot va ta'lim faoliyatini rivojlantirish
63. **М.А.ОРИПОВ, Н.О.РАХМОНКУЛОВА.** Ўзбекистонда инвестицион салоҳиятни ривожлантиришнинг мамлакат автотранспорт саноатидаги ўрни
66. **Қ.ПУЛАТОВ.** Тижорат банкларининг чакана кредитлаш амалиётини такомиллаштириш йўллари
70. **Н.ХАЛИЕВА.** Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг амалдаги ҳолати ва уни ривожлантириш истиқболи
73. **A.ABDULLOEV, I.LATIPOV.** Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va samaradorligini oshirish yo'llari
76. **А.ЖУЗБАЕВ.** Кичик бизнес субъектлари фаолиятини самарали молиялаштириш – соҳа тараққиёти гарови
81. **А. ОБЛОҚУЛОВ.** Туркияда кооперация шакллари ва муносабатларини ривожлантириш ҳолати ҳамда уни мамлакатимизда жорий этиш имкониятлари
84. **А.НАУРИЗБАЕВ.** Акциядорлик жамиятларнинг инвестицион фаолияти йўналишлари
87. **О.ҒАЙБУЛЛАЕВ.** Ўзбекистон Республикасида хорижий инвестицияларни жалб этиш орқали инвестицион салоҳиятни оширишнинг концептуал асослари
91. **Ҳ.ТУРОВОВА, Л.ЖИЯНОВ.** Биоиқтисодиёт: Бухоро вилоятида экин майдонларидан оқилон фойдаланиш имкониятлари
94. **Д.МАТКАБУЛОВА.** Ўзбекистон экспортини ривожлантиришда туризм салоҳиятидан фойдаланишни такомиллаштириш йўналишлари
99. **Н.ЯКУБОВА.** Бизнес-процесс в страховой деятельности во взаимосвязи с глобальными трендами: специфика и оптимизация
105. **А.АБДИЛАЛИМОВ.** Анализ и учет затрат в зерноперерабатывающих кластерах
109. **М.НАЗАРОВА.** Мева-сабзавот тармоғида инновацион технологияларни қўллашда ривожланган мамлакатлар тажрибаси
112. **Д.РУСТАМОВА, Д.СУЛТОНОВА.** Агробизнесда маркетинг стратегияси ва уни бошқаришнинг асосий йўналишлари
116. **Т.МАМАНАЗАРОВ.** Замонавий таълим ва инновацион технологиялар соҳасидаги илғор хорижий тажрибалар: кейс-стади
119. **Н.СОЛИЕВА.** Қишлоқ хўжалиги корхоналарини суғурталаш тизимини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш йўналишлари
122. **Г.БАЙМУРАТОВА.** Суғурта ташкилотлари молиявий рискларини баҳолаш: концептуал ёндашувлар
124. **Б.ЖУБАНОВА.** Тадбиркор субъектларнинг инновацион лойиҳаларини молиялаштириш
128. **O.SHERMATOV, G.OLIMJONOVA.** Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda meva sabzavotchilik sohasining o'rni
130. **Ш.АЗИЗОВ, О.МУСТАНОВ, Б.ЖЎРАЕВ.** Транспорти-логистик тизимлар фаолиятини мувофиқлаштиришнинг назарий-услубий асослари
133. **М.ТАЙРОВА, М.НИЯЗОВ.** Современные системы оценки персонала предприятия по методу kpi (key performance indicators)
136. **К.ШОДМОНҚУЛОВ.** Кичик саноат зоналари фаолиятини ривожлантиришда индустриал паркларнинг ўрни
141. **З.ШАНИЯЗОВА.** Аграр соҳани ривожлантиришнинг назарий ва концептуал асослари
143. **N.ASHURMETOVA, G.XAMDAMOVA.** Jahon va o'zbekistonda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish tendentsiyalari
147. **Д.ШАМШИТОВА.** Классификация экономических потерь наносимых вредителями сельскохозяйственному производству
150. **Ш.ИГАМОВА.** Перспективы дальнейшего развития промышленности строительных материалов
154. **А.ХАТАМОВ, З.САБУРОВА.** Аҳолини қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан таъминлаш жараёनларини такомиллаштириш

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MEVA SABZAVOTCHILIK SOHASINING O'RNI

ODILJON SHERMATOV,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti

GAVXAROY OLIMJONOVA,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti

Аннотация: Maqolada oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashda meva sabzavotchilik tizimini o'rni va ahamiyati hamda meva sabzavotchilik tizimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari tahlil etilgan.

Аннотация: В статье рассмотрены роль и значение плодовоовощной системы, а также вопросы повышения экономической эффективности в плодовоовощной системе для обеспечения продовольственной безопасности

Abstract: The article discusses the role and importance of the fruit and vegetable system, as well as issues of increasing economic efficiency in the fruit and vegetable system to ensure food security.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida maxsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va iste'mol bozorini himoya qilishga qaratilgan oziq-ovqat strategiyalarini ishlab chiqish nafaqat mamlakatda, balki jahon miqyosidagi eng muhim masalalardan sanaladi. Zero, "... hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya'ni har to'qqiz odamning biri to'yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik muammosiga duch kelmoqda. Shu bois, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tibbiy me'yorga mos ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, jumladan meva va sabzavot ishlab chiqarish hajmini oshirishning yangi innovatsion imkoniyatlarini tadqiq qilish dolzarb masaladir.

O'zbekistonda oziq-ovqat ta'minoti barqarorligini saqlashda dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari va meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining o'rni yuqori ekanligi bois, ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarini rivojlantirish bo'yicha keng miqyosda islohotlar olib borilmoqda. Ammo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini barqaror oshirib borish, yer maydonlaridan samarali foydalanish masalalarida ayniqsa meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida qator muammo hamda kamchiliklar kuzatilmoqda. Shu bois, bu yo'nalishdagi maxsulot yetishtiruvchilarda samarali tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda meva va sabzavot yetishtirishni izchil rivojlantirish asosida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish kabi masalalar ustuvor vazifa qilib belgilab olindi. Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish meva va sabzavotchilikda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish faoliyatini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra,

Niderlandiya (Gollandiya) xar yili o'zining 1 million gektar yerida dehqonchilik qilib, 102 milliard dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilar ekan. O'zbekistonda esa bugungi kundagi statistika bo'yicha 4 million gektarga yaqin dehqonchilik qilsa bo'ladigan yerlar bor. Shundan davlat buyurtmalari asosida paxta va bug'doy yetishtirilayotgan yerlardan tashqari qishloq xo'jaligi yerlari 2 million gektar atrofida. 2 million gektarga yaqin qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi-dexqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari yerlari va turli yo'nalishdagi fermer xo'jaliklariga qarashli bo'lgan yerlar hisoblanadi. Bugungi kunda davlat buyurtmasidan tashqari qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarning amaldagi faoliyati bozor iqtisodiyoti talablariga mos emasligi kelgusidagi oziq-ovqat xavfsizligini barqarorligiga xavfni keltirib chiqaradi. Chunki, aytaylik, kimdir 1 gektar yerda biror mahsulot yetishtirib, uni eksport qilish orqali 10 ming dollargacha foyda qila oladi. Yana kim esa buning o'rniga 2 ming dollar keltiradigan mahsulot ekishi mumkin. Bunday holat fanda yerdan noratsional foydalanish deyiladi. Zero, qaysidir yer egasi o'zini va mamlakatini oz emas-ko'p emas xar gektar xisobiga - 8 ming dollardan maxrum qilyapti. Savol tug'iladi nima uchun dexqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari va fermer xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik turlicha?, ya'ni dehqon va tomorqa yer egalari yuqori va fermer xo'jaligida past. Fikrimizcha agar meva va sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan fermerlarda ham xuddi dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egasidek o'z mulkiga nisbatan iqtisodiy va texnologik mustaqillik bo'lganida edi samaradorlik yuqori bo'lar edi. Chunki, bu xolatda meva yoki sabzavot yetishtiruvchi fermer o'ziga qarashli yerga nima ekadi, qachon ekadi yetishtirilgan maxsulotni qaerga sotadi va nihoyat erishilgan foydani qanday taqsimot qiladi? kabi qator masalalarni o'zi mustaqil xal etadi. Bugungi kunda Andijon

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, meva sabzavotchilik tizimi, fermer xo'jaligi, bozor infratuzilmasi.

viloyati bo'yicha aholi soni 3011700 kishidan ortgan va viloyatda bir kvadrat kilometrda o'rtacha 714 kishi to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Respublika bo'yicha o'rtacha 74 kishini tashkil etadi. Viloyatda 201026 gektar sug'orilib dehqonchilik qilinadigan ekin yerlari mavjud bo'lib, shundan 28836 gektarini bog' va tokzorlar, 10041 gektarini sabzavot ekiladigan maydonlar tashkil etadi. Biz tadqiqot davomida Andijon viloyatida meva yetishtirish xolati statistikasi bilan tanishdik. Viloyat bo'yicha jami 28836 gektar yerlarda meva yetishtiriladi. SHundan 26592 gektardagi ya'ni 92 foizi mevaga kirgan bog'lar xisoblanadi. Bugungi kunda viloyatda jami 434296 tonna atrofida meva yetishtirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich viloyatning xar bir aholisiga (434296000 kg/3011700=134kg/kishi/365 kun=367 gr/kun) kuniga o'rtacha 367 gramm dan to'g'ri keladi. Shuningdek, viloyatdagi dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari soni 477374 nafar bo'lib, ularga qarashli bo'lgan yer maydonlari 24541 gektarni tashkil etadi. Viloyat qishloq xo'jaligi bo'limi ma'lumotlariga ko'ra viloyat dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqa yerlarida 2020 yilda 393119 tonna sabzavotlar yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich viloyatning xar bir aholisiga (393119 000 kg/3011700=130.5 kg/kishi/365 kun=357 gr/kun) kuniga o'rtacha 357 gramm dan to'g'ri keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'z ma'lumotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan birgina meva va sabzavotlar iste'molini kishi boshiga kunlik 400–500 grammga chiqarish lozimligini, lekin afsuski, ushbu me'yor dunyo bo'yicha o'rtacha 150–200 grammni tashkil etayotganini e'tirof etmoqda. Xalqaro diyetologlar tavsiyasiga ko'ra, inson iste'moliga kiradigan oziq-ovqatning kamida 50 foizini meva va sabzavotlar tashkil etishi lozim. Agar Andijon viloyatida bugungi kunda yetishtirilayotgan meva va sabzavotlar viloyat aholisi kishi boshiga kuniga o'rtacha 724 (367 gramm meva+357 gramm sabzavotlar) gramm dan to'g'ri kelayotgan bir sharoitda bu ko'rsatkichdan kishi boshiga kuniga 400 grammi jaxon sog'liqni saqlash tashkiloti normalari bo'yicha iste'molga yo'naltirilsa kishi boshiga yetishtirilgan 324 gramm meva va sabzavotni ya'ni 356284 tonna meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish imkoniyati bor. Bu nisbat esa 53377 gektar meva va sabzavot maydonlariga gektariga o'rtacha 6.7 tonna meva va sabzavot eksporti to'g'ri keladi. Meva va sabzavotni 1 kilogramini o'rtacha 5000 so'm dan xisoblansa, 1 gektar xisobiga meva va sabzavot

eksporti 33 500 000 so'm yoki 3700 AQSH dollariga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichni Gollandiyadagi meva va sabzavotlar eksporti (1 ga/12000 \$) ga solishtirilganda bu sohada amalga oshirishimiz lozim bo'lgan vazifalar xali juda ko'p ekanligidan dalolat beradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida meva va sabzavotchilik sohasida maxsulot yetishtirishni ko'paytirish, sifatini bugungi kun talabi darajasida yaxshilash va bu soxada iqtisodiy samaradorlikni optimal darajagacha ko'tarish uchn quyidagilarni taklif etamiz:

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining lokomotivi vazifasini bajarish qudratiga ega bo'lgan sohadir. yer, jazirama quyosh, millionlab tajribali qishloq dehqonlari, issiq quyoshda yetilgan o'zbek meva-sabzavotlariga bo'lgan yuqori talab, yonimizdagi katta bozorlar mavjudligi aholisi zich, ishsizlik miqdori yuqori bo'lgan hududlarda kichkina yer xo'jaliklarini tuzish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Meva va sabzavotchilik sohasida kichik yer xo'jaliklarini vujudga keltirish hozirda faoliyat yuritib turgan shu yo'nalishdagi fermerlarning yerlarini qayta taqsimlashni taqozo etadi. Ammo hozirda yerda bevosita ishlaydigan oila a'zolariga ega bo'lmagan (hozirda meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermerlar tarkibida ko'p uchraydi) aksariyat xollarda oilaviy a'zolar mehnatidan emas, balki yollanma ishchi kuchidan foydalanuvchi fermerga, o'z erki o'ziga qo'yib berilishi sharti bilan unga, deylik, yerining bir qismi qoldirilishini, boshqa qismi yuksak darajadagi dehqonchilik tajribasiga ega bo'lgan hamqishloqlariga berilishini aytasangiz, albatta rozi bo'ladi. Buning nimasi yaxshi?

- Dehqon shaxsiy manfaati yo'lida o'z yerida chin dildan ishlaydi;
- O'zi egalik qilayotgan yerida nima yetishtirishni obdon o'ylaydi;
- yetishtirishni rejalashtirayotgan maxsuloti bo'yicha hisob-kitob qiladi;
- Bozorni o'rganadi;
- Novatsiyalarga intiladi;
- Mahsuloti ko'p va sifatli bo'lishiga intiladi va hokazo.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda meva va sabzavot yetishtiruvchilar faoliyatini diaersifikatsiyalash xisobiga ular fvoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish eng avvalo meva va sabzavot mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, sifatini yaxshilash hamda sohaga yangi innovatsiyalarni mustaqil kiritish imkoniyatlarini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdug'aniyev A., A. Abdug'aniyev. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Toshkent. TDIU. 2010y
2. O. Shermatov, B. Nosirov, R. Imomov, M. Kobulova. Problems of effective usage of lands in agriculture for ensuring food security. South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). ISSN: 2249-877X Vol. 10, Issue 4, April Spl Issue 2020, Impact Factor: SJIF 2020= 7.11
3. www.fao.org – Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги халқаро ташкилотининг расмий сайти маълумотлари.
4. O. Shermatov, R. Imomov. Economic efficiency in agriculture and factors affecting it. Актуальная наука. Международный научный журнал. ISSN: 2587-9022, №10(29) 2019 21–22 стр.